

Logopediya fanining umumiy masalalari

Kalit so‘zlar: korreksiya, nutq nuqsonlari, anamnez, tuzatish, kommunakatsiya

Annotatsiya Bola nutqining rivojlanishi jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o‘z vaqtida bilish va aniqlash uchun bola nutqining fiziologik rivojlanish davrlarini aniq bilish zarur bo‘ladi. Pedagog bolaning normal rivojlanishida birinchi so‘zlar qachon paydo bo‘lishini bilsa, u holda u bu bolaning normal yoki anomal rivojlanayotganini aniqlay oladi. Bola nutqining rivojlanishining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ketayotgani, me’yorda yoki me’yordan orqada qolayotganini aniqlash, nutqiy buzilishlarni to‘g‘ri tashxislash uchun bola nutqining rivojlanish xususiyatlarini bilish nihoyatda muhim. Nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishning to‘g‘ri yo‘lini tanlash, aniq tarbiyaviy-tuzatish ish rejasini tuzish uchun bola nutqining rivojlanish qonuniyatlarini ham bilish zarur bo‘ladi. Ushbu maqolada logopediya faniga oid ma’lumotlar batafsil yoritilgan.

Annotation The meaning of life and the sacred duty of every person in society is to raise their children to be physically and spiritually perfect people, to be loyal to their country and homeland. Therefore, today, the most urgent task of our time is to provide comprehensive knowledge to the youth, who are the future of our homeland, and to educate them to be spiritually perfect and ideologically mature. In our society, all opportunities have been created to educate young people as creative thinkers and intellectually capable individuals.

Kirish

Logopediya - grekcha *logos* (so‘z, nutq), *peydeo* (tarbiyalayman, o‘qitaman) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, “nutqni tarbiyalash” ma’nosini anglatadi. Fan sifatida logopediya nutq nuqsonini tuzatish, nutqiy faoliyati zaiflashgan shaxslarni o‘qitish va tarbiyalash jarayoni hisoblanadi. Umumiylar ma’noda logopediya bu – nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta’lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini o‘rganish, tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fan bo‘lib, nutq faoliyati buzilishining sabablari, mexanizmlari, alomatlari, oqimlari tarkibini o‘rganadi. Mazkur fanning o‘rganish ob’ekti nutqiy nuqsonli shaxslardir, shuning uchun u maxsus pedagogika fanlari tarkibiga kiradi, Fanning asosiy maqsadi nutkida nuqsoni bor shaxslarni ukitish, tarbiyalash va qayta tarbiyalashning ilmiy asoslangan sistemasini ishlab chiqish, shuningdek, nutqiy nuqsonlarning oldini olishdan iborat. Chuqur optimizm va insonparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan ushbu fan nutqida nuqsoni bor bolalarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishi va jamiyatga to‘laqonli insonlar sifatida qaytishi uchun bor imkoniyatlar eshiklarini ochib beradi.

Har bir insonning hayotning ma’nosini va jamiyatdagi muqaddas vazifasi farzandlarini ham jismonan, ham ma’naviy jihatdan komil inson qilib tarbiyalash, yurt-eliga, Vataniga sadoqatli qilib voyaga yetkazishdan iborat. Shu bois hozirgi kunda Vatanimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarga har tomonlama bilim berish, ularni ma’naviy barkamol, g‘oyaviy yetuk qilib tarbiyalash davrimizning eng dolzarb vazifasidir. Jamiyatimizda yoshlarni ijodiy tafakkur egasi, intellektual salohiyatga ega shaxs etib tarbiyalash uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Bugun yurtimizdagi har bir bola davlatimiz tomonidan yaratib berilgan barcha haq-huquqlarini to‘liq foydalana olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga ularning jamiyatda o‘z layoqatlariga yarasha o‘rinlarga ega bo‘lishlarini to‘la ta’minalash uchun nihoyatda katta e’tibor qaratilayotgani barchaga ma’lum.

Bola shaxsining har tomonlama rivojlanishida ular nutqining benuqson bo‘lishining ahamiyati katta. Kishilararo aloqa quroli, muloqot va bilim olish vositasi bo‘lgan til tom ma’noda insonni yaratuvchi insonga aylantirdi. Ma’lumki, til va nutq biri birisiz mayjud bo‘lolmaydi, til nutq orqali namoyon bo‘ladi, ayni vaqtida nutq tilning yashash va rivojlanish shakli hisoblanadi. Til va nutq antinomiyasining ushbu buyuk xususiyati XIX asrdayoq buyuk nemis faylasufi va tilshunosi Vilgelm fon Gumboldt va fransuz tilshunosi Ferdinand de Sossyur tomonidan kashf

etilgan va asoslangan edi. Til nafaqat aloqa quroli, balki bilimlarni egallash va to‘plab avloddan avlodga yetkazuvchi vosita sifatida ham amal qiladi.

Har bir inson o‘zi tug‘ilib voyaga yetayotgan jamiyatdagi tildan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, nutq kishilarning tug‘ma qobiliyati emas. Nutq bolalarda atrofidagi jamiyat (oilasi, do‘s-t-o‘rtoqlari) ta’sirida asta-sekin rivojlanma boradi. Bola o‘sib katta bo‘lgan sari uning nutqi ham rivojlanib boradi. Biroq bolalar nutqining me’yorda rivojlanishi uchun uning jismoniy sog‘lomligi, xususan, bosh miya po‘stlog‘idagi nutq markazi to‘liq rivojlangan bo‘lishi, shuningdek, eshitish, ko‘rish, idroq etish kabi sezgi organlari yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi kerak. Bu o‘rinda ayniqsa nutqni harakatga keltiruvchi va nutqni eshituvchi analizatorlarning rivojlangan bo‘lishi nihoyatda muhim. Bola nutqi juda yoshligidan boshlab atrofdagi predmetlarni tanish, atrofdagilarning ovozini eshitish orqali shakllanib boradi. Agar bola yangi, aniq taassurotlar olib turmasa, uning harakatlari va nutqining rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratib berilmasa, bu holda bolaning ham jismoniy, ham ruhiy rivojlanishi orqada qoladi. Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to‘g‘ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to‘g‘ri nutq muhiti va ta’lim-tarbiyaga bog‘liq. Bolalarda nutqning rivojlanish jarayoni o‘z vaqtida va to‘g‘ri kechishi uchun maxsus shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi kerak, ya’ni bola psixik va somatik jihatdan sog‘lom, aqliy qobiliyati, eshitish va ko‘rish faoliyati normal bo‘lishi, ruhiy jihatdan yetarli darajada faol, gaplashishga ehtiyoj sezishi va to‘g‘ri nutq muhiti sharoitida o‘sisi lozim. Demak, bola nutqining nutqining normal rivojlanishi nafaqat atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajriba, to‘g‘ri nutq muhiti va ta’lim-tarbiyaga bog‘liq, balki jismoniy nuqsonlar va yana turli psixofiziologik sabablarga ham bog‘liq bo‘lib, ushbu sabablar bola nutqining to‘g‘ri rivojlanmasligiga, bolaning kichik yoshidan nutqsiz bo‘lib voyaga yetishiga olib kelishi mumkin. Demak, nutq tug‘ma kobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi. Tabiiyki, nutqi rivojlanmagan yoki nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning jamiyatga qo‘silishi, tengdoshlari bilan birga ilm olishi va jamiyatning teng huquqli fuqarosi sifatida erkin faoliyat yuritishi imkoniyatlari kamayib ketadi. Ko‘rinadiki, bolalar nutqidagi nuqsonlarni aniqlash, nutqiy kamchiliklarni o‘rganish va bartaraf qilish, avvalo, bola nutqining normal rivojlanish yo‘lini, bu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishi omillarini o‘rganishni taqozo etadi.

Bola nutqining rivojlanishi jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o‘z vaqtida bilish va aniqlash uchun bola nutqining fiziologik rivojlanish davrlarini aniq bilish zarur bo‘ladi. Pedagog bolaning normal rivojlanishida birinchi so‘zlar qachon paydo bo‘lishini bilsa, u holda u bu bolaning normal yoki anormal rivojlanayotganini aniqlay oladi. Demak, bola nutqining rivojlanishining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ketayotgani, me’yorda yoki me’yordan orqada qolayotganini aniqlash, nutqiy buzilishlarni to‘g‘ri tashxislash uchun bola nutqining rivojlanish xususiyatlarini bilish nihoyatda muhim. Nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishning to‘g‘ri yo‘lini tanlash, aniq tarbiyaviy-tuzatish ish rejasini tuzish uchun bola nutqining rivojlanish qonuniyatlarini ham bilish zarur bo‘ladi.

Bola nutqining rivojlanish jarayoni o‘z vaqtida to‘g‘ri kechishi uchun:

- bola ruhiy va jismoniy jihatdan sog‘lom bo‘lishi;
- normal aqliy qobiliyatga ega bo‘lishi;
- normal eshitishi va ko‘rishi;
- yetarli darajada ruhiy faollikka ega bo‘lishi;
- gaplashish ehtiyojiga ega bo‘lishi;
- to‘g‘ri nutq muhitiga ega bo‘lishi lozim.

Nutq kamchiliklari muayyan tilning me’yorlaridan chetga chiqish holatlari sifatida ta’riflanadi va quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- nutq kamchiligi o‘z-o‘zidan barham topmaydi, balki vaqt utgan sari yanada mustahkamlanib, zo‘rayib boraverdi;
- nutqiy nuqsonlarning kattalarda namoyon bo‘lishi ularning yoshi bilan mos ravishda kechmaydi;

- nutq kamchiligiga ega bo‘lgan kishilar logopedik yordamga muhtoj bo‘lishlarini yoddan chiqarmaslik kerak;

- og‘ir nutqiy nuqsonlar nafaqat bolaning nutqiga, balki uning umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalar nutqiga kichik yoshidan e’tibor berish, ular nutqidagi kamchiliklarning yuzaga kelish sabablarini erta aniqlash va to‘g‘ri tashxislash nutqida nuqsoni bor bolalarni jamiyatga to‘laqonli bolalar sifatida qaytarish, ularning kelajakda har tomonlama bilimdon, aqlan va jismonan komil inson bo‘lib yetishishlari uchun katta zamin yaratadi. Yuqorida qayd etilganlar ushbu masalaning o‘ta muhimligi va dolzarbligini ko‘rsatadi, biroq maktabgacha kichik yoshida nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir maxsus dasturiy ishlanmalari, qo‘llanmalar, zamonaviy pedagogik va texnologik materiallarning kamligi bu boradagi muammolar hali to‘la yechim topmaganligini dalillaydi. Shundan kelib chiqib, mazkur qo‘llanmada maktabgacha kichik yoshdagi nutqida nuqsoni bor bolalar dizontogenezining ayrim xususiyatlari, kichik yoshda uchraydigan nutqiy nuqsonlarning turlari, ularni o‘z vaqtida aniqlash, to‘g‘ri tashxis qo‘yish va davolash-profilaktika choralarini ko‘rish masalalari yoritildi, bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf qilishning zamonaviy metodlari, bolalarni logopedik ko‘rikdan o‘tkazish metodikasi, nutqni rivojlantirish bo‘yicha tizimlashtirilgan korreksion-logopedik ishlar tavsija qilindi.

Muayyan xalqning adabiy tilida qabul qilingan nutq normasidan bir oz bo‘lsa ham chetga chiqish nutqiy nuqson hisoblanadi. Nutqiy nuqsonlar albatta insонning fiziologik va yosh xususiyatlari bilan bevosita aloqador bo‘ladi. shunga ko‘ra zamonaviy logopediya strukturasi maktabgacha kichik yoshidagi bolalar, maktab yoshidagi bolalar, o‘smirlar va katta yoshdagilar logopediyasi kabi turlarga bo‘linadi.

I.P.Pavlovnning birinchi va ikkinchi signallar sistemasi, ularning o‘zaro ta’siri, shartli reflekslar va reflektorlik aloqalarining shakllanish qoidalari haqidagi nazariyalari, P.K.Anoxinning funksional sistemalar haqidagi ta’limoti, I.M.Sehenov, I.P.Pavlov, A.R.Luriyalarning ruhiy funksiyalarning dinamik tarzda o‘sishini cheklash, nutq faoliyatining zamonaviy neyropsixolingvistik nazariyalari haqidagi ta’limotlari logopediyaning ilmiy-nazariy va psixofiziologik asoslari hisoblanadi.

I.P.Pavlov ta’limotiga ko‘ra bosh miyaning murakkab psixofiziologik funksiyasini bajaruvchi nutq ikkinchi signal sistemasi hisoblanadi. Birinchi va ikkinchi signal sistemalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ikkinchi signal sistemasi birinchi sistema asosida shakllanadi. Ammo keyinchalik ikkinchi signal sistemasining birinchi signal sistemaga tartibga soluvchi ta’siri namoyon bo‘ladi. So‘z alohida xususiyatning signali, umumlashtirish, mavhumlashtirish quroli bo‘lib, shundan kelib chiqib nutq signallarning signali deya tavsiflanadi. Birinchi va ikkinchi signal sistemalari orasidagi o‘zaro murakkab aloqalarni hisobga olish nutq buzilishlarini tuzatish, buzilgan nutq va nutqsiz funksiyalarning o‘rnini bosish ustida samarali logopedik ish olib borishni taqazo etadi. Shulardan kelib chiqqan holda, logopediya fani quyidagi vazifalarni bajaradi:

- nutq buzilishining turli shakllarida nutq faoliyatining ontogenesini o‘rganish;

- nutq buzilishlarining tarqalish miqyosi, alomatlari va darajalarini aniqlash;

- nutq faoliyati buzilgan bolalarning o‘z-o‘zidan va biror maqsadga qaratilgan rivojlanish dinamikasini, shuningdek, bolalardagi nutqiy zaiflikning ularning shaxs sifatida yetishishiga, ruhiy rivojlanishiga, turli ko‘rinishdagi faoliyatlarini namoyon qilish, o‘zini tutishiga ta’sirini aniqlash;

- rivojlanishida turli xil nuqsonlar bo‘lgan bolalarda (eshitish, ko‘rish, fikrlash qobiliyatining hamda tayanch-harakat apparatining buzilishi hollarida) nutqning shakllanishi va nutq buzilishlari xususiyatlarini o‘rganish;

- nutq buzilishining kelib chiqish sabablari, mexanizmlari, tuzilishi va alomatlarini aniqlash;

- nutq buzilishlarining pedagogik diagnostikasi metodlarini ishlab chiqish;

- nutq buzilishlarini tartibga solish;

- nutq buzilishlarini bartaraf etishning tamoyillari, differensiyalashgan metodlari va vositalarini ishlab chiqish;

- nutq buzilishining oldini olish metodlarini takomillashtirish;
- logopedik yordamni tashkil etish masalalarini ishlab chiqish.

Logopediya fan sifatida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bolaning nutqiy, tafakkur va butun ruhiy faoliyatini o'zaro chambarchas bog'liqda o'rganadi. Ko'rsatib o'tilgan vazifalarda logopediya fanining ham nazariy, ham amaliy yo'naliishlari belgilab berilgan bo'lib, bunda fanning **nazariy tomoni** nutq buzilishlarini o'rganish, ularni aniqlash, oldini olish va tuzatishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqishdan, **amaliy tomoni** esa nutq buzilishlarini oldini olish va bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Ushbu nazariy va amaliy vazifalar bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, ularni hal etish uchun quyidagilar amalga oshirilishi taqozo etiladi:

- fanlararo aloqalarni yo'lga qo'yish va nutq jarayoni hamda nutqiy nuqsonlarni o'rganuvchi ko'plab yondosh soha mutaxassislari (psixologlar, neyropsixologlar, neyrofiziologlar, tilshunoslar, pedagoglar, turli ixtisosdagi vrachlar va boshqa kishilarni hamkorlikda ish olib borish;
- nazariya sohasidagi yangiliklarni amaliyotga tezroq tatbiq etish uchun fan va amaliyot o'rtaisdagi aloqalarni, nazariy va amaliy muassasalar orasidagi hamkorlikni ta'minlash;
- nutqning buzilishini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish tamoyillarini amalga oshirish;
- nutq buzilishini oldini olish uchun aholi o'rtaida logopedik bilimlar targ'ibotini olib borish.

Qayd etilgan vazifalarning o'z vaqtida va o'zaro bog'liq holda bajarilishi logopediyaning ta'sir kuchi darajasini belgilaydi. Logopedik ta'sir etishning asosiy yo'naliishi nutqning rivojlanishi, nuqsonli nutqni tuzatish va nuqsonlarning oldini olishdan iborat. Logopedik ish jarayonida sezuvchanlik qobiliyatini rivojlanirish; uni harakatga keltiruvchi kuchlar, xususan, nutqqa ta'sir etuvchi harakatlarni bilish faoliyati, ayniqsa tafakkur faoliyatini, xotira, diqqat jarayonlarini rivojlanirish; shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, yaxshilash bilan bir vaqtida bola shaxsini ham tarkib toptirish orqali sotsial muhitga ta'sir etish nazarda tutiladi.

Logopedik jarayonni tashkil etish nutq buzilishini to'g'rilash bilan bir qatorda psixofizik nuqsonlarni ham tuzatish yoki yengillatish uchun kerakli shart-sharoit yaratadi va pedagogik ta'sirning markazida turgan shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beradi.

Nutq rivojlanishi jarayonida bolada bilish faoliyatining oliy shakllari, tafakkur qilish qobiliyatlari shakllanadi. So'zning ahamiyati o'z-o'zidan umumlashtiruvchi hisoblanadi va shu munosabat bilan o'zida nafaqat nutq birligini, balki tafakkur birligini ham namoyon qiladi. Ular aynan o'xhash emas va ma'lum darajada bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda paydo bo'ladi. Lekin bolaning ruhiy rivojlanishi jarayonida murakkab, sifat jihatdan yangi birlik, ya'ni nutqiy tafakkur, nutqiy fikrlash faoliyati paydo bo'ladi.

Nutqiy muomala qobiliyatining rivojlanishi bolada insoniy ijtimoiy aloqalarning rivojlanishi uchun zamin hozirlaydi: bolada atrof-muhit haqidagi tasavvurlar shakllanadi va oydinlashadi, uni aks ettirish shakllari takomillashadi. Bolada nutqiy qobiliyatning yuzaga kelishi va rivojlanishi unga o'z xatti-harakatlarini anglash, rejorashtirish va tartibga solish uchun imkon yaratadi. Nutqiy muloqot yuritish, muomala faoliyatining turli shakllarini rivojlanirish bolaning jamoa mehnatida ishtirok etishi va jamiyatning to'zlaqonli a'zosiga aylanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi.

U yoki bu darajadagi nutq buzilishlari (nutq buzilishlarining xususiyatiga bog'lik holda) bolaning barcha ruhiy rivojlanishlariga salbiy ta'sir etadi, uning faoliyatida, yurish-turishida aks etadi. Og'ir nutqiy buzilishlar aqliy rivojlanishga, ayniqsa, bilish faoliyati oliy darajalarining shakllanishiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Nutq va tafakkurning chambarchas bog'liqligi, nutqiy aloqalarning cheklanganligi ijtimoiy-sotsial aloqalarga ham ta'sir etadi va bolaning atrof-muhitni idrok etishida namoyon bo'ladi.

Nutq buzilishi, nutqiy muomalaning cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, tabiatan bo'lmagan ruhiy buzilishlarni keltirib chiqarishi, bola xarakterida hissiy-irodaviy soha rivojiga aloqdar: tortinchoqlik, qat'iyatsizlik, odamovilik kabi salbiy xususiyatlarning rivojlanishi uchun zamin yaratib berishi mumkin. Ayni vaqtida bularning

barchasi savodxonlikni egallashga, fanlarni o'zlashtirish, kasb tanlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, logopediyaning ahamiyati bolalarda faqat nutqiy buzilishlarnigina bartaraf etishgina emas, balki bolaning har tomonlama mukammal rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir.

Logopediya boshqa fanlar bilan ham chambargas bog'liq bo'lib, shaxsga har tomonlama ta'sir ko'rsatish, nutq buzilishini bartaraf etish va oldini olish bilan omilkorona shug'ullanish uchun nutqdagi nuqsonlarning alomatlarini, ularning etiologiyasi, nutq mexanizmlarini, nutq faoliyati jarayonini, nutqning buzilishi jarayonidagi nutqiy va nutqsiz alomatlar munosabatlarni ham bilish kerak bo'ladi. Bular logopediyaning boshqa fanlar bilan bo'ladigan aloqasini belgilaydi.

Ma'lumki, sistemalar ichida va sistemalar o'rtasida turli alokalar mavjud. Sistemalar ichidagi aloqalarga pedagogika hamda maxsus pedagogikaning turli sohalari: surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika metodikasi, umumiylar va maxsus psixologiya bilan bo'ladigan aloqalarni yoki tilshunoslik sohasida til sathlarini o'rganuvchi fonetika, leksikologiya, morfolagiya, sintaksis bo'limlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kiritish mumkin.

Ayni vaqtida logopediya umumiylar anatomiya va fiziologiya, nutq mexanizmlari, nutq jarayonining bosh miyada tashkil etilishi haqidagi, nutq faoliyatida ishtirot etadigan analizatorlarning kuriishi va harakatga kelishini o'rganuvchi tilshunoslik, nevrologiya, psixologiya kabi fanlar bilan ham uzviy aloqada bo'ladi. Chunki nutq buzilishi mexanizmlarini tushunish tuzatish jarayoni qonuniyatlarini aniqlash uchun oliy ruhiy funksiyalarning dinamik lokalizatsiyalanishi to'g'risidagi, nutqning ongda shakllanishi borasidagi bilimlardan xabardor bo'lish taqozo etiladi.

Nutq murakkab belgilar sistemasiga ega bo'lgan tilning mahsuli faoliyat mahsulidir. Tilning murakkab sistemasi uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli, biroq uning mahsuli bo'lgan nutq bola tomonidan nisbatan qisqa muddatda tez va oson o'zlashtirib olinadi. Nutqiy faoliyat bosh miya a'zolarining serqirra funksiyalari asosida yuzaga keladi, ulardan har biri nutq faoliyatining o'ziga xos vazifasini bajaradi. Jumladan, A.R.Luriya miya faoliyatini quyidagi uchta funksional blokka ajratadi:

Birinchi blok bosh miya po'stlog'i osti (yuqori stvol va limbik sohasi) ga oid bilimlarni o'z ichiga oladi va bosh miya qatlami tonusining normal va tetiklik holatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinci blok orqa miya qatlami katta yarim sharlari bo'laklarini o'z ichiga oladi, tashqi dunyodan olingan sezgi axborotlarini qabul qiladi, qayta ishlaydi va saqlaydi. U bilish (gnostik) jarayonini amalga oshiradigan asosiy miya apparati hisoblanadi. Tuzilishiga ko'ra *birlamchi*, *ikkilamchi* va *uchlamchi* doiralarga ajraladi. *Birlamchi doiraga* miya qatlaming proeksiyon doiralari kiradi, uning neyronlari o'ta yuqori darajadagi o'ziga xoslik bilan ajralib turadi. Ularda alohida sezgi a'zolaridan sezgi axborotlarini qabul qilish hodisasi yuz beradi.

Miya qatlami apparatlarining birlamchi doiralari ustiga *ikkilamchi doiralar* qurilgan bo'lib, ular birlamchi doira orqali olingan qo'zg'alishlarni tahlil qiladi. Ikkilamchi doiralar birlamchi doiralar kabi o'zining ixtisosiy modalligi (ko'rish, eshitish va boshqa doiralar)ni saqlaydi. Birlamchi va ikkilamchi doiralar u yoki bu analizatorlar (ko'rish, eshitish va boshqalar)ning bosh miya qatlami birikmasini o'zida namoyon etadi.

Uchlamchi doiralar analizatorlarning miya qatlami bo'linmalarini o'zgartirish doiralar hisoblanadi. Ular turli modallikda olingan sezgi axborotlarini tahlil qiladi, sintezlaydi va bir-biriga integratsiya qilish vazifasini o'taydi. ularning faoliyati asosida sintezlarning beqaror va tashqi darajasidan simvolik darajaga, e'tiborni qaratish munosabatlari, murakkab logik-grammatik so'zlar qurilishi haqidagi bilimlar bilan ish ko'rishga o'tish sodir bo'ladi.

Uchinchi blok katta yarim sharlar qobig'inining oldingi bo'limlari (motor, motor oldi va old frontal soha) doirasini o'z ichiga oladi. Bu blok inson faoliyatini rejalshtirish, moslashtirish va nazorat qilishni ta'minlaydi. U, shuningdek, miya qobig'i ostidati a'zolar faoliyati barcha sistemalarning tonusi va tetik holatini ular faoliyati oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiqlashtirishni ham amalga oshiradi.

Nutq faoliyati barcha bloklarning birgalikda ishlashi natijasining mahsuli sifatida vujudga keladi. Ushbu jarayonda har bir blok maxsus o‘ziga xos xususiyati bilan ishtirok etadi va alohida vazifalarni bajaradi.

Jumladan, nutqning akustik belgilarini ajratib ko‘rsatish va differensiyalash nutq-eshitish analizatori kortikal apparatlarning analitik-sintetik faoliyati bilan ta’minlanadi. Bunga miya qobig‘i markaziy va old motor quyisi bo‘linmalari sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan bosh miya qobig‘i (Vernike doirasi) ning so‘l yuqori ikkilamchi qismlari kiradi.

Nutq aktining artikulyatsiyalashuvi, motor tashkil etilishi jarayoni esa nutq apparati muskullarining murakkab tuzatuv ishini maxsus muvofiqlashtirish asosida amalga oshiriladi. Nutq aktining motor yig‘indisi markaziy qismlarning ikkilamchi bo‘limlari (kinestetik apparat) va chap o‘ram qismining quyisi bo‘limlari (kinetik apparat) bilan ta’minlanadi. Markaziy qismida nutq apparati muskullaridan yuboriladigan kinestetik sezgilar analizi sodir bo‘ladi. O‘ram qismida esa nutq aktining motor dasturi tashkil etiladi, qator nerv impulsllari, bir harakatdan ikkinchi harakatga yengil o‘tish imkoniyatini ta’minlovchi kinestatik modellar yaratiladi.

Nutq birliklarini tanlanish va ularning kompensatsiyalashuvi, ma’noning nutq ko‘rinishiga aylanish jarayoni bosh miya qobig‘ining eng yuqori darajada shakllanishidir. Nutq bosh suyagi old va ustki qismi uchlamchi bo‘linmalarining aralashuvisiz hosil bo‘lmaydi. Bosh miya qobig‘ining uchlamchi bo‘limlari bir tekisda qabul qilinadigan akustik-motor axborotlarining fikrlash sxemasi va obrazlariga o‘tkazilishini ta’minlaydi. Miya qobig‘ining ustki qismida, shuningdek keng aloqalarni anglatuvchi sxema ham shakllanadi. Yozma nutq jarayonida ham bosh miya qobig‘ining ensa va ensa-tepa qismlarining turli bo‘limlari ishtirok etadi.

Shunday qilib, nutq jarayonida bosh miya qobig‘ining turli qismlari o‘zining alohida faoliyati bilan ishtirok etadi. Shu bois bosh miya qobig‘i qaysidir qismining jarohatlanishi nutq faoliyati buzilishining o‘ziga xos alomatlariga olib keladi. Nutq jarayonining miyada amalga oshishi haqidagi ma’lumotlar nutq faoliyati buzilishining etiologiyasi va mexanizmlari to‘g‘risidagi tasavvurlarni aniqlashtirishga imkon beradi. Bu ma’lumotlar bosh miyaning lokal jarohatlanishidagi nutq buzilishlarining turli shakllarining differential diagnostikasi uchun juda muhim bo‘lib, ularni o‘z vaqtida to‘g‘ri aniqlash bemorlar nutqini tiklash ustida samarali logopedik ish olib borish imkonini beradi.

Logopediyada otorinolaringologiya, nevropatologiya, psixopatologiya, oligofreniya klinikasi, pediatriya kabi fanlar bilan uzviy bog‘liqdir. Jumladan, nutq va eshitish a‘zolarining patologiyasi (masalan, tovush buzilishida) nafaqat buzilishlar etiologiyasini aniqlashga, balki tibbiy ta’sir ko‘rsatish bilan bo‘ladigan logopedik ishlarni to‘g‘ri qo‘sib olib borish uchun ham imkon beradi. Tovushning buzilishi qisman xiqildoq va tovush burishiqlari (g‘urralar, tugunchalar, papillomalar, tovush burmalarining chandiqqa aylanishi va boshqalar)ning turli organik jarohatlanishidan hosil bo‘lishi mumkin. Bunday hollardagi tovush buzilishining tovush apparati fiziologik ishini normallashtirmay turib davolash mumkin emas. Bu dori-darmon, jarrohlik, fizioterapiya, psixoterapiya usullari orqali ta’sir etish bilan amalga oshiriladi.

Nutq buzilishining ko‘pgina turlari markaziy asab sistemasining organik shikastlanishi bilan bog‘lik bo‘lib, u logoped va nevropatolog-vrach yoki psixonevrologning hamkorlikda ishlashi orqaligina aniklanishi mumkin. Nutq buzilishi hollarida ruhiy faoliyatning turli darajadagi buzilishlari:

- ruhiy rivojlanishda orqada qolish;
- o‘zini tutish va his-hayajon holatlaridagi buzilishlar;
- dikkat-e’tibor, xotiraning susayishi;
- aqliy faoliyat buzilishlarida ko‘zga tashlanishi mumkin.

Nutq buzilishlarida ularning paydo bo‘lish mexanizmlari tahlili, markaziy asab sistemasi buzilishlari bilan bog‘liq bo‘lgan, birlamchi va ikkilamchi ruhiy faoliyatga aloqador ishlarning hammasi psixonevrolog-vrachning xizmat vazifasi doirasiga kiradi. Psixonevrolog-vrach bolanling aqliy holati haqida xulosa chiqaradi, nutqiy kamchiligini tibbiy jihatdan aniqlaydi va talab etiladigan davo choralarini qo‘llaydi.

Aytish joizki, nutq buzilishining bir qator ko‘rinishlari miya rivojlanishining barvaqt sekinlashuvi bilan bog‘liq. Bunday hollarda logopedik faoliyat markaziy asab sistemasini maxsus dori-darmonlar bilan davolash orqaligina samara berishi mumkin. Bunday davoni vrach-psixonevrolog belgilaydi. Ayrim paytlarda nutq buzilishlari his-hayajonli qo‘zg‘alishning kuchayishi natijasida sodir bo‘ladigan harakatdagi notinchlik bilan qo‘shiladi. Bunda bola maxsus davolangunga qadar logopedning ishi besamar qolaveradi.

Nutqning alohida ko‘rinishdagi buzilishlariga, masalan, duduqlanishning ayrim turlari, mutizm yoki o‘tkir ruhiy iztiroblarga (qo‘rqish, hayajon) shaxs ko‘nikkan muhitning almashinishi (masalan, yaqin kishilaridan ayrılish) va boshqalar sabab bo‘lishi mumkin. Ularning paydo bo‘lish vaqtida bola tegishli kun tartibi va davoga muhtoj bo‘ladi; faqat psixonevrolog-vrach va logopedning hamkorlikda ish olib borishigina uning sog‘ayib ketishiga zamin hozirlaydi.

Qayd etilganlar shundan dalolat beradiki, logopediya – pedagogik fan hisoblangani bilan u o‘z oldidagi vazifalarini faqat tibbiyot fanlari va avvalo, nevropatologiya hamda bolalar psixologiyasi fanlari yordamidagina muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. Shu bois anomal bolalarni, shu jumladan, nutqida nuqsoni bor bo‘lgan bolalarni ham o‘qitish va tarbiyalash nazariyasi asab sistemasi tuzilishi, uning rivojlanish xususiyatlari va vazifalari haqidagi bilimlar asosida quriladi.

Logoped nutq buzilishining nevrologik asoslarini bilishi, bolalar psixopatalogiyasi masalalarini tushunishi, oligofreniya va ruhiy rivojlanishning tormozlanishi, harakat va his-hayajonli buzilishlarda namoyon bo‘ladigan, bolalardagi ruhiy buzilishlarning eng ko‘p uchraydigan shakllari haqida xam tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Bu bilimlar nutq buzilishining sabablarini to‘g‘ri aniqlashda, nutqdagi nuqsonlarni tuzatishning samarali metodlarini tanlashda, bolani o‘qitish va tarbiyalash, uning nuqsonli rivojlanishining oldini olishda yordam beradi.

Nevropatologiya, psixopatologiya, oligofreniya klinikasi, eshitish, ko‘rish, nutq a’zolari patologiyasi bilan uzviy aloqada bo‘lish nutq buzilishini farqlab tashxis qilish uchun nihoyatda zarurdir. Chunonchi, sensor alaliyasi va eshitishning pasaygan hollaridagi nutq buzilishlarini aniqlash, eshitish faoliyatini chuqur tekshirishni talab qiladi, oligofreniyada esa alaliya holatlaridagi nutq buzilishlarini boladagi ruhiy va sensomotor rivojlanish xususiyatlarini, intellektning ahvolini aniqlamay amlga oshirib bo‘lmaydi.

Tibbiyot fanlari ma’lumotlari logopedga nutq buzilishining mexanizmlari, etiologiyasini o‘rganishga to‘g‘ri yondashish uchun yordam beradi, nutq buzilishlarining turli ko‘rinishlarini bartaraf etishda diagnostika va differensiyalaşgan logopedik ta’sir etish masalalarini to‘g‘ri hal etish imkonini yaratadi. Bolalarni turli tipdagи maxsus muassasalarga to‘g‘ri tanlash ham diagnoz qo‘yishga bog‘liqdir.

Logopediya tilshunoslik va psixolingvistika bilan ham uzviy bog‘liq. Nutq til birligining turli ko‘rinishlarini (og‘zaki nutq, yozma nutq) namoyon qilish bilan bir vaqtida va ularning amal qilish qoidalaridan foydalanishni ham nazarda tutadi. Bolaning til normalarini o‘zlashtirish qonuniyatlarini va ularning izchilligini bilish nafaqat logopedik xulosalarni aniqlashtirishga yordam beradi, balki logopedik ta’sir etish sistemalarini ishlab chiqish uchun ham zarur bo‘ladi.

Zamonaviy logopediyadagi sistemali nutq buzilishini o‘rganish va bartaraf etishda L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, A.Leontevning nutq faoliyatining murakkab tuzilishi, nutqni idrok etish jarayonlari va nutqning ta’sir kuchi, uning samarasi haqidagi ta’limotiga asoslanuvchi psixolingvistika ma’lumotlaridan keng foydalilaniladi.

Ma’lumki, nutqni idrok etish va uning samaralari turli operatsiyalarini qamrab oladigan, murakkab ierarxik qurilishga ega bo‘lgan ko‘p darajali jarayonlardan iborat. Nutq hosil bo‘lish jarayonining har bir darajasi, har bir operatsiyasi o‘zining birliklariga va ularni umumlashtirish, birlashtirishning sintagmatik, paradigmatic va ierarxik munosabatlariga ega.

Nutq buzilishlarini o‘rganishda albatta nutq hosil bo‘lish operatsiyalaridan qaysi biri buzilganligini aniqlash o‘ta muhimdir. Masalan, alaliyani o‘rganishda psixolingvistik yondashish ana shu nutq buzilishi mexanizmini chuqur yoritishga, nutqiy nuqsonning tuzilishini aniqlashga, bu buzilishni til buzilishi deb belgilashga imkon beradi. Afaziya paytidagi xilma-xil idrok operatsiyalari turli shakllarda nutqning buzilish xususiyatlarini aniqlab olishga imkon beradi.

Xulosa

Nutq buzilishlarida ularning paydo bo‘lish mexanizmlari tahlili, markaziy asab sistemasi buzilishlari bilan bog‘liq bo‘lgan, birlamchi va ikkilamchi ruhiy faoliyatga aloqador ishlarning hammasi psixonevrolog-vrachning xizmat vazifasi doirasiga kiradi. Psixonevrolog-vrach bolaning aqliy holati haqida xulosa chiqaradi, nutqiy kamchiliginib tibbiy jihatdan aniqlaydi va talab etiladigan davo choralarini qo‘llaydi.

Aytish joizki, nutq buzilishining bir qator ko‘rinishlari miya rivojlanishining barvaqt sekinlashuvi bilan bog‘liq. Bunday hollarda logopedik faoliyat markaziy asab sistemasini maxsus dori-darmonlar bilan davolash orqaligina samara berishi mumkin. Bunday davoni vrach-psixonevrolog belgilaydi. Ayrim paytlarda nutq buzilishlari his-hayajonli qo‘zg‘alishning kuchayishi natijasida sodir bo‘ladigan harakatdagi notinchlik bilan qo‘shiladi. Bunda bola maxsus davolangunga qadar logopedning ishi besamar qolaveradi.